DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-76 Pages: 662-669

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



SOME VIEWS ON VERBS MEANING "TO BE SILENT" IN ARABIC

Toxir S. Xamzayev
Trainee Teacher, MD in Philology
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: mr.tokhir@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: to be quiet, silence, stillness, hear, listen, stillness, peace, wise words about silence, proverbs about silence, hadiths about staying silent, Sufyan Thawri's thoughts on acquiring knowledge.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article is devoted to the semantic features and interpretation of the verbs صمت and سكت, which are frequently found in Arabic and express the meaning of "to be silent", as well as several verbs that express the meaning of "to be silent", "to keep silent", "to hear", "to be still", "to be quiet". The comparative analysis of words that express the meaning of "to remain silent" used some of the views of Arabic linguists, the thoughts of the Prophet's companions about silence and stillness, and Arabic proverbs and wise sayings. The definitions given for silence were presented. An attempt was made to highlight the different features in the use of the verbs صمت and سكت.

ARAB TILIDA "JIM TURMOQ" MA'NOSIDAGI FE'LLAR BORASIDA BA'ZI QARASHLAR

Toxir S. Xamzayev
Stajyor o'qituvchi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
*Email: mr.tokhir@gmail.com_*
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jim turmoq, sukut, sukunat, eshitish, quloq solish, jimjitlik, sokinlik, tinchlik, sukutga doir hikmatli so'zlar,

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida tez-tez uchraydigan "jim turmoq" ma'nosini ifodalovchi asosan صمت va سكت fe'llari,

sukutga doir maqollar, jim turmoq haqida hadis, Sufyon Savriyning ilm olish haqidagi fikrlari.

shuningdek jim turish, sukut saqlash, sukunat, eshitish, jimjitlik, sokinlik, tinchlik ma’nosini ifodalovchi bir qancha fe’llarning ma’no ifodalash xususiyatlari va ularning izohiga bag‘ishlangan. “Jim turmoq” ma’nosini ifodalovchi so‘zlarning qiyosiy tahlilida arab tilshunos olimlarining ba’zi qarashlari, sahobalarning sukut va jimlik haqidagi fikrlari, arab tilidagi maqollar va hikmatli so‘zlardan foydalanildi. Sukutga nisbatan berilgan ta’riflar ko‘rsatildi. صمت va سكت fe’llarining qo‘llanilishidagi farqli xususiyatlar yoritib berishga harakat qilindi.

НЕКОТОРЫЕ МНЕНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНО АРАБСКИХ ГЛАГОЛОВ СО ЗНАЧЕНИЕМ «МОЛЧАТЬ»

Тохир С. Хамзаев
Учитель-стажер
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: mr.tokhir@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: быть тихим, тишина, неподвижность, слышать, слушать, мир, мудрые слова о тишине, пословицы о тишине, хадисы о сохранении молчания, мысли Суфьяна Саури о приобретении знаний.

Аннотация: Статья посвящена семантическим особенностям и толкованию глаголов صمت и سكت, которые часто встречаются в арабском языке и выражают значение «молчать», а также нескольким глаголам, выражающим значение «молчать», «сохранять спокойствие», «слышать», «тишина», «тихо». При сравнительном анализе слов, выражающих значение «молчать», использованы некоторые взгляды арабских лингвистов, мысли сподвижников о тишине и покое, а также арабские пословицы и мудрые изречения. Были показаны определения, данные термину «тишина». Была сделана попытка выделить различные особенности употребления глаголов صمت и سكت.

Kirish. Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha birgina gap, xattoki birgina so‘z ham butun boshli oilalar, qabilalar, xalqlar, millatlar va davlatlar o‘rtasida nizo va kelishmovchiliklar, urushlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham dono xalqimiz: “Sukut – tinchlik kalitidir, Tinglash – eng yaxshi suhbatdir, Jim turish – aqllilik belgisidir” kabi maqol va iboralarni ishlatishgan. Bu kabi iboralar boshqa tillarda ham ko‘plab uchraydi. Xususan, arablar ham sukut va jimlikga doir:

الصمت لغة العظماء؛ سكوت حكيم؛ الصمت أحيانًا يُعبّر عن الأفكار؛ السكوت شرف، عندما يتكلم الصمت: في أوقات الحزن أو الألم، قد يحمل الصمت معانٍ عميقة لا يستطيع الكلام التعبير عنها؛ الكلام من فضة و السكوت من ذهب

(Jimlik buyuk (inson) larning tilidir; hikmatli jimlik; Sukut, ba’zan, fikrlarni ifodalaydi; Jimlik sharafdir; Jimlik gapirganida: qayg‘u yoki og‘riq paytida, so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydigan chuqur ma’nolarni sukut o‘z ichiga oladi; Gap kumush, sukut oltin) kabi maqol va matallardan keng foydalanishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilidagi lug’atlardan القاموس المحيط - lug‘atshunos va tilshunos Abu at-Tohir Majididdin Muhammad ibn Yaqub ibn Muhammad ibn Ibrohim ash-Sheroziy al-Fayruzobodiy (1329—1414) tomonidan tuzilgan arabcha lug‘at, Ibn Manzurning لسان العرب lug‘ati, المعاني elektron lug‘ati, المعجم الوسيط lug‘ati, جواهرالقاموس، تاج العروس lug‘atlaridan, shuningdek, bir qancha “jim turmoq” ma’nosini ifodalovchi va tavsiflovchi manbalardan foydalanildi. Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular sharhlash, tavsiflash, qiyosiy tahlil va komponentli tahlil metodlari yordamida o‘rganildi.

Natijalar. Arab tilida ko‘p uchraydigan صمت va سكت fe’llarining qo‘llanilishidagi farqli xususiyatlarni o‘rganish. Shuningdek, “jim turmoq” ma’nosini ifodalovchi boshqa fe’llar bilan ham tanishish va “jim turmoq” fe’lining boshqa ma’no ifodalash xususiyatini o‘rganish.

سكت “jim turmoq” ma’nosidagi fe’lning bir qancha sinonimlari bo‘lib, ularning ba’zilari faqatgina kontekstda sinonim hisoblanadi, المعاني lug‘atida ular quyidagicha ko‘rsatilgan:

أَخْفَى، أَضْمَرَ، أَطْرَقَ، أَنْصَتَ، بَكَمَ، بَكِمَ، بَكَتَّمَ، خَبَا، خَرِسَ، خَفَتَ، سَكَنَ، صَمَتَ، فَتَرَ، كَظَمَ، كَفَّ، هَدَأَ، وَجَمَ، وَجِمَ، أَبْلَمَ، أَرْطَمَ اِسْتَعْجَمَ، خَفِيَ، صَعُبَ، بَكُمَ، انْقَطَعَ عَنِ الْكَلَامِ، بَلَّمَ.

Maqolada, asosan, “jim turmoq” ma’nosini ifodalovchi, eng ko‘p qo‘llaniladigan سَكَتَ va صَمَتَ fe’llari haqida fikr yuritiladi.

صمت - “jim turmoq, sukut saqlamoq” fe’lining masdari صَمتٌ hisoblanadi. الصمت so‘zi arab tilida “sukunat”, “jimjitlik”, yoki “gapirmaslik” degan ma’nolarni anglatadi. Bu so‘z odatda ichki tinchlik yoki tashqi muhitdagi shovqinni rad etish bilan bog‘liq. الصمت ko‘pincha ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lib, insonning hikmatli yoki oqilona jim turishini bildiradi. الصمت حكمة – “Jimjitlik hikmatdir” (Ragab Mahmoud, 2010, p.16). Bu ifoda jim turishning ba’zan eng yaxshi javob bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

سكت – “sukut saqlamoq, jim turmoq, gapirmaslik, tinchlanmoq” fe’lining masdari سُكُوتٌ so‘zidir. السكوت so‘zi ham “gapirmaslik” yoki “jimlik”ni anglatadi, lekin u ko‘proq tashqi sharoitlarda, odamning gapirmasligi yoki ovoz chiqarmasligi holatiga nisbatan ishlatiladi. السكوت ko‘pincha tashqi ta’sirlar yoki sharoitlar tufayli bo‘lgan jimlikni bildiradi. السكوت عن الحق شيطان – “Haqni aytmaslik shaytonning ishi” (Mohammed Al-Boubaidi, 2021, p.19). Bu so‘zdagi “سكوت” boshqalar bilan bog‘lanishdan qochish yoki haqiqatni yashirishga ishora qiladi.

Bu ikki fe’l orasidagi asosiy farq arab tilida quyidagicha ta’riflanadi: السكوت: يتولد من الخوف. الصمت: يتولد من الأدب و الحكمة. Sukut qo‘rquvdan kelib chiqadi. Jimlik odob va hikmatdan kelib chiqadi. Jimlik va sukut orasidagi farq quyidagicha izohlangan:

الفرق بين الصمت و السكوت: الصمت: الامتناع عن الكلام. و يقال لغير الناطق: صامت. و لا يقال ساكت. السكوت: التوقف عن الكلام (‘Abd al-Hādī Najā, 2019, p.235)

Jimlik: so‘zlashga imkonsiz bo‘lish. Gapira olmaydigan (inson)ga صامت deyiladi. ساكت deyilmaydi. Sukut:gapirishdan to‘xtash. Ya’ni, sukut so‘zi gapira olish qobiliyati bo‘la turib gapirmaslikka aytiladi. Shuningdek, bu ikki so‘z haqida quyidagi ma’lumotlar ham keltirilgan السكوت إمساك عن الكلام حقا كان أو باطلا، أما الصمت فهو إمساك عن قول الباطل دون الحق (Mahdi Rizq, 2012, p.196)

Sukut – gapirishdan to‘xtash, haqiqat bo‘lsin yoki yolg‘on bo‘lsin. Jimlik esa – faqat yolg‘onni aytmaslik, haqni aytishga to‘g‘ri kelganda ham.

Arab xalq maqollari ichida الكلام من فضة و السكوت من ذهب ya’ni, “gap kumush(dan), sukut esa oltin(dan)dir” degan maqol bor. Ushbu maqol nutq yoki gapning ahamiyatini anglatadi, lekin sukut saqlashdan nisbatan kamroq ahamiyatga ega ekanligini ham ko‘rsatadi. E’tiborli jihati, hammaga tushunarli va sodda bo‘lishi uchun gap va sukut qimmatli metallardan kumush va oltinga o‘xshatilmoqda. Kumush va oltin moddasining qiymatida ham farq bor. Aynan qiymatdagi farq ko‘pchilikka qadimdan ma’lum, shuning uchun ham gap kumushga, sukut esa oltinga o‘xshatilmoqda. Ya’ni, qimmatligi jihatidan sukut gapdan ko‘ra ustunroq hisoblanadi. Ammo, esdan chiqarmaslik kerakki, yuqoridagi maqol umumiy ma’noda sukutning afzalligini ifodalaydi. Aslida esa, vaziyatdan kelib chiqqan holda gapning ahamiyati juda katta. Chunki gapirish orqali g‘oyalar va his-tuyg‘ularni yetkazish mumkin, muammolarni tez va samarali hal qilishga yordam berishi mumkin, boshqalar bilan suhbat qilish, mustahkam ijtimoiy bog‘lanishlarni yaratishga yordam berishi mumkin. Natijada, gapirish va sukut saqlash vaqtini bilish — odamning donoligini va ijtimoiy aloqalarni boshqarish qobiliyatini aks ettiradi.

سكوت الغضب: زواله: استعاذ الرجل بالله من الشيطان الرجيم فسكت غضبه (Dawoud, Muhammad , 2003, p.309) – g‘azabning jim bo‘lishi (bosilishi): uning yo‘qolishi: kishi quvilgan shayton (yomonligi) dan Allohdan panoh so‘radi va g‘azabi bosildi. Bu ta’bir Qur’oni Karimdagi A’rof surasining 154-oyatida ham {وَ لَمَّا سَكَتَ عَن مُّوسَى الْغَضَبُ} “Muso (a.s.) ning g‘azabi bosilgach” deb zikr qilingan. Ko‘rinib turganidek, bu o‘rinda سكت fe’li “jim bo‘lmoq” ma’nosidan ko‘ra “bosilmoq”, “ketmoq” ma’nolarini ifodalamoqda.

Arab adabiyotida “jimlik” haqida ko‘plab ta’riflar va o‘xshatishlar yozilgan. Shunday o‘xshatishlardan birida jimlikni besh turga bo‘lishadi va u quyidagicha ta’riflanadi

للصمت خمسة أنواع: عند ما لا تقتنع بكلام الشخص الذي أمامك، خاصة الأكبر سنا! يكون الصمت إحتراما. عند ما يتجاهلك عزيز ليلتفت إلى أوليات أخرى! يكون الصمت ألما. عند ما يجرحك شخص و تذهب لتبكي بمفردك! يكون الصمت

قهرا. عند ما تشعر بأن قلبك أصبح ضعيفا لا يحتمل الألم! يكون الصمت خنقا. عند ما يتلفظ الذي أمامك بكلمات جارحة! يكون الصمت قوة.

- Jimlikning beshta turi bor:

1. Agar oldingizdagi insonning gaplariga ishonmasangiz (qanoatlanmasangiz, rozi bo'lmasangiz) ayniqsa kattaroq yoshdagilarga, jimlik – hurmat bo'ladi.

2. Agar yaqin insoningiz sizni e'tiborsiz qoldirib, boshqa narsalarga qarasa, jimlik – og'riq bo'ladi.

3. Agar kimdir sizni haqorat qilsa (jarohatlasa), siz yolg'iz yig'lashingiz kerak bo'lsa, jimlik – majburlik (qahr, ranj) bo'ladi.

4. Agar yuragingiz og'riqni ko'tara olmaydigan darajada zaif bo'lsa, jimlik – bo'g'ilish bo'ladi.

5. Agar oldingizdagi inson so'zlari bilan sizni xafa qilsa, jimlik – kuch bo'ladi.

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, sukut va jimlik turli kontekstlarda xilma-xil ma'nolarga ega, shuningdek, Jimlik so'zi bir qancha qo'shimcha ma'nolarni ifodalashi va bu kabi ma'no ifodalash xususiyati har bir xalqning madaniyati, urf-odati va adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

"Jim turmoq" ma'nosini ifodalovchi so'zlardan ba'zilarining umumiy xususiyatlari haqida qisqacha izoh va misollar quyida keltiriladi:

صمت - jimlik: Bu so'z, gapirmaslik, so'zlamaslik holatini anglatadi. Odamning biror sababga ko'ra gapirishni to'xtatganini ifodalaydi. Ko'pincha odamning xohishiga yoki zaruratiga ko'ra, ya'ni gapirishni ato qilmaslik, yoki o'ylab gapirish uchun gapirmaslikni bildiradi. Bu holat maqsadli yoki tasodifiy bo'lishi mumkin: كان هناك صمت في القاعة عندما بدأ المحاضر في الحديث – "Konferensiyada jimlik (sukut) hukm surdi".

سكوت - sukut: Bu so'z, ko'pincha gapirmaslik, yoki muayyan bir vaziyatda, masalan, hurmat yoki xijolat sababli gapirmaslikni anglatadi. U qisqa muddatli va vaqtincha bo'lishi mumkin: سكت الجميع عندما بدأ الأب يتحدث – "Ota gapirishni boshlaganida hamma jim bo'ldi".

هدوء - tinchlik: Bu so'z, tinchlik, xotirjamlik, va sokinlik holatini bildiradi. Bu, nafaqat tashqi tinchlikni, balki ichki tinchlikni ham anglatadi: في تلك اللحظة، ساد الهدوء في الغرفة، وكان الجميع في حالة استرخاء – "O'sha lahzada xonada tinchlik (sokinlik) hukm surdi va barcha lanj holatida edi".

سكون - sukunat: Bu so'z, harakatsizlik, to'xtash yoki mutlaq tinchlik holatini anglatadi. Bu holat ko'pincha boshqa harakatlar yoki tovushlardan butunlay xoli bo'lishni anglatadi: سكنت الرياح في تلك الليلة، وعم السكون المكان – "O'sha kechada shamol tindi, joyni sukunat qopladi".

خاموشية - jimlik yoki sukut ma'nolarini anglatadi. Bu so'z ham gapirmaslik yoki so'zlamaslik holatini ifodalaydi. Odamning muayyan bir vaziyatda yoki sharoitda gapirmaslik, ichki tinchlik yoki tashqi shovqindan xoli bo'lish holatini tasvirlash uchun ishlatiladi. خاموشية

odatda hushyor bo‘lish yoki fikrni o‘ylash maqsadida sukut saqlashni anglatadi: عمَّت الخاموشية في الغرفة عندما بدأ النقاش في موضوع حساس - Nozik mavzu bo‘yicha munozara boshlanganda xonani sukunat egalladi.

Hadislarni to‘plash va ishonchli bo‘lganlarini tanlash borasida katta shuhrat qozongan Sufyon Savriy ilm olishda besh asosiy bosqichni quyidagicha sanab o‘tgan (Muḥammad ibn Muḥammad, 2019, p.120) أول العلم الصمت و الثاني الإستماع له و الثالث حفظه و الرابع العمل به و الخامس نشره و تعليمه. Ilmning avvali sukutdir, ikkinchisi uni tinglashdir, uchinchisi uni (esda) saqlashdir, to‘rtinchisi unga amal qilishdir (ya’ni, o‘qib o‘rganganini hayotiga tatbiq qilish, unga amal qilish), beshinchisi esa uni tarqatish va o‘rgatishdir. Sufyon Savriyga ko‘ra, jimlik bilim olishda diqqatni jamlash uchun zarurdir. Jimlik olingan bilimlarni tahlil qilish va o‘zlashtirish uchun imkoniyat beradi. Ilm faqat eslab qolish bilan emas, balki chuqur tushunish bilan paydo bo‘ladi. Jimlik, insonning o‘zini anglash va ichki olamiga kirish imkonini ochadi. Ilmning tabiati va mohiyatini, shuningdek, din, falsafa va hayot haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Yuqoridagi fikrlardan ham jimlikning ilm olishdagi muhimlik darajasini ko‘rish mumkin.

Yana bir qiziq jihati, eshitishni ifodalovchi ayrim fe’llar ham jim turmoq ma’nosiga ishora qiladi. Xususan, و الانصات يعني السكوت مع الاستماع، و أيضا الإصاخة تعني الاستماع إلى ما يصعب إدراكه – “Tinglash (الانصات) – eshitishlik bilan jim turishni ifodalaydi. Quloq solish (الإصاخة) – tushunish qiyin bo‘lgan narsani jim turib eshitishni ifodalaydi.

Sukut va jimlik haqida yana bir qancha arabcha iboralarni ko‘rib chiqamiz: الصمت لغة العظماء – Jimlik buyuk (inson) larning tilidir. Jimlik, ba’zan so‘zlardan kuchliroqdir. Chunki u insonning kuchini va vaziyatni boshqarish qobiliyatini ko‘rsatadi. Vaziyatni boshqarish qobiliyati esa buyuklarga xos.

الصمت أبلغ من الكلام – “Jimjitlik so‘zdan kuchlidir”.

السكوت في بعض المواقف هو الصواب – “Ba’zi holatlarda jim turish to‘g‘ri qarordir”.

كان السكوت سائدًا بعد عرض الفكرة، حيث كانت الجميع في حالة من التفكير – “Fikrni taqdim etganidan so‘ng, hamma sokinlikda o‘ylab qoldi”.

فضل السكوت عندما سُئل عن رأيه في القضية الحساسة – “U, bu noqulay savolga javob bermaslikni tanladi”.

السكوت في مواقف معينة قد يكون أبلغ من الكلام – “Ba’zi vaziyatlarda sokinlik gapdan ko‘ra ko‘proq ma’no anglatadi”.

Islomda jimlik (الصمت) va sukut (السكوت) o‘rtasidagi farq Qur’oni Karim va Payg‘ambarimiz sunnatlarida zikr qilingan, hatto sahobalar va tobe’inlarning so‘zlarida ham bu farq ko‘rsatilgan. Ular orasida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: (Mohamed Zaki, 2007, p.115) من كان يؤمن بالله و اليوم الآخر فليقل خيرا أو ليصمت - “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, yaxshi so‘z aytsin yoki jim tursin”, dedilar. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu

aytdilar: و قال علي ابن ابي طالب كرم الله وجهه: إذا تم العقل نقص الكلام، و قال: بكثرة الصمت تكون الهيبة - "Agar aql komil bo‘lsa, so‘z susayadi. Ko‘p sukunat bilan ulug‘vorlik keladi". Ulamolarning fikricha, nafaqat gapira olish qobiliyati, balki, jim turish va sukut ham inson uchun ziynat hisoblanadi. Alloh taolo bu ziynatlarni bizni bezatish uchun yaratgan. Ularning har biri uchun nazorat va me’yorlar qilib qo‘ygan. Yaxshi bo‘lsa, gapiramiz, aksincha bo‘lsa, sukut yaxshidir, haqiqatni gapirishdan boshqa barcha vaziyatlarda sukut saqlash yaxshiroqdir.

O‘zbek xalq mafkurasida "jim turish" ko‘pincha hurmat yoki ehtiyotkorlik bilan bog‘lanadi. Odamlar o‘z fikrlarini bildirayotganda, ba’zida sukut saqlashni, gapirmaslikni yoki "jim turishni" yaxshi niyat yoki madaniyat belgisi sifatida ko‘radilar. Sukut ba’zan odamlar o‘rtasidagi murosa yoki muvozanatni ta’minlash maqsadida ishlatiladi. U ko‘pincha qarama-qarshiliklardan saqlanish yoki fikrni mulohaza qilish uchun bir usul sifatida tushuniladi. Shuningdek, jim turish biron-bir savolga javob bo‘lmaganida, yoki darsga tayyorlanib kelmaganlik belgisi sifatida ham xizmat qiladi. Xalqimizda jim turish va sukut haqida bir qancha hikmatli so‘zlar va maqollar qo‘llangan. Ulardan ba’zilari quyidagilar: Jim tur, xato qilmassan; Sukut – aqlning so‘zidir; Gapirganingda bir marta, jim turganingda yuz marta o‘ylab tur; Jimlik – mehr va sadoqatning belgisi; Sukut saqlash – oqilona javob; Sukut – so‘zdan ko‘ra kuchliroq; Sukut o‘zini tanigan insonning belgisi; Sukutda gapdan ko‘ra ko‘proq ma’no bor. Jimlik, sukut, sokinlik, xotirjamlik, tinchlik, sukut saqlash, jimjitlik – jim turmoq ma’nosini ifodalovchi sinonimlardir. Avar yozuvchisi Rasul Hamzatovning sukut saqlash haqidagi fikrlari naqadar ma’noli: Odam tilga kirishi uchun ikki yil kifoya, lekin tilini tiyib turishni o‘rganishi uchun oltmish yil kerak bo‘ladi". Haqiqatdan ham "jim turmoq" ma’nosini ifodalovchi fe’llar ko‘p bo‘lishiga qaramay, sukut saqlash xususiyatiga ega bo‘lish uchun ko‘p yillar talab qilinadi.

Xulosa. Arab tilida "jim turmoq" ma’nosini ifodalovchi fe’llar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, har bir fe’l alohida xususiyatga ega. To‘g‘ri, kontekstda ularni sinonim sifatida qo‘llash mumkin. Ammo, fe’llarning nozik ma’no anglatish xususiyatiga ko‘ra birini o‘rnida ikkinchisini qo‘llash noto‘g‘ri hisoblanadi. Yuqorida zikr qilingan fe’llar misolida oladigan bo‘lsak, gapira olmaydigan insonga صامت deyiladi, ساكت deyilmaydi. Sukut esa gapirishdan to‘xtashdir. Ya’ni, sukut so‘zi gapira olish qobiliyati bo‘la turib gapirmaslikka aytiladi. Sukut yoki jimlik haqida bu maqollar, frazalar va hikmatli so‘zlar, insonlarni gapirishdan ko‘ra jim turishga, o‘ylab gapirishga va tinchlikni saqlashga undaydi. Ba’zan sukut faqat tinchlikni emas, balki donolikni, aqlni va ehtiyotkorlikni ham bildiradi. Ilm olishda va tarbiyada sukutning ahamiyati juda katta. Sukut, nafaqat ruhiy holat, balki insonning ma’naviy, axloqiy va ilmiy rivojlanishiga xizmat qiladigan bir vositadir.

Eshitishni ifodalovchi ayrim fe’llar ham jim turmoq ma’nosiga ishora qiladi. Xususan, “Tinglash (الانصات) – eshitishlik bilan jim turishni ifodalaydi. Quloq solish (الإصاخة) – tushunish qiyin bo‘lgan narsani jim turib eshitishni ifodalaydi.

Sukut (السكوت), kishi xohlagan paytda va har qanday suhbatda gapirishdan tiyilish qobiliyatini anglatsa, jimlik (الصمت) yolg‘ondan tiyilishni anglatadi, lekin haqiqatdan emas.

Arab adabiyotida, ko‘pincha “سكوت” ni o‘ylash yoki kutish holati sifatida tasvirlaydilar, bu esa insonni dunyo bilan muloqot qilishda hech qanday so‘z ishlatmasdan ham o‘z fikrini yoki his-tuyg‘ularini ifodalash usuli sifatida ko‘riladi. “سكوت” ba’zan chuqur tushunish yoki tartibni saqlash vositasi sifatida ishlatilsa, boshqa paytlarda esa bu e’tiborsizlik yoki rad etish sifatida tushunilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. ‘Abd al-Hādī Najā ibn Raḍwān Najā Abyārī (2019). The Book of the Sublime Processions in Explaining the Luminous Planets in Scientific Controls. Kitāb Al-Mawākib al-‘Alīyah fī Tawḍīḥ al-Kawākib al-Durrīyah fī al-Ḍawābiṭ al-‘Ilmīyah. (Digital version of the book) al-Maṭba‘ah al-Khayrīyah. – 250 p. (in Arabic).
2. Dawoud, Muhammad Muhammad (2003). Dictionary of idiomatic expressions in contemporary Arabic. Mu'jam al-Ta'bīr al-Istīlāhī fī al-‘Arabīyah al-Mu'āṣirah. – Beirut, Dar al-Ilm Lil-Malayin. – 687 p. (in Arabic).
3. Firouz-abadi, Muhammad b. Ya`qoub (2005). Al-Qāmus al-Muḥīṭ. - Beirut,
4. Al-Resalah Publishers. – 1498 p. (in Arabic).
5. Mahdi Rizq Allah Ahmed (2012). Educational values in the Prophet's biography. Al-Qiyam al-Tarbawīyah fī al-Sīrah al-Nabawīyah. – Riyadh, Chair of Engr. Abdoulmohsen M.aldrees For The Prophet Its & Mohammad’s Seerh Contemporary Studies – King Saud University. 260 p. (in Arabic).
6. Mohamed Zaki Khader (2007). Righteousness in One Hundred Prophetic Hadiths. Al-Istiqāmah fī Mi'at Ḥadīth Nabawī. Dar Al-Mamoun for Printing and Publishing. – 137 p. (in Arabic).
7. Mohammed Al-Boubaidi (2021). Moroccan folk tales. Hikayāt al-Amthāl ash-Sha‘bīyah al-Maghribīyah. – Morocco, Bibliomania publishings. – 122 p. (in Arabic).
8. Muḥammad ibn Muḥammad Murtaḍá al-Zabīdī (1894/ digital b. 2019). The book “A Gift to the Pious Masters, Explaining the Revival of the Religious Sciences”. Kitāb Ittahaf al-Sadā al-Muttaqīn bi Sharḥ Ihyā’ ‘Ulūm al-Dīn. Harvard University. (in Arabic).

9. Ragab Mahmoud I. Bakhit (2010). Masterpieces of Arabic Wisdom: Ancient Arabic Sayings and Proverbs. Rawā'i' al-Ḥikmah al-ʻArabīyah: al-Ḥikam wa al-Amthāl al-ʻArabīyah al-Qadīmah. – Cairo, ktab INC. – 178 p. (in Arabic).